

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Y.22.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**XABIBULLAYEV DAVLATJON YULCHIBOYEVICH**

**FUQAROLIK SUD ISHLARINI YURITISHNING PROTSESSUAL  
MUAMMOLARI**

12.00.04 – Fuqarolik protsessual huquqi. Iqtisodiy protsessual huquqi. Hakamlik jarayoni va mediatsiya

**Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**UDK: 347.9 (035.3) (575.1)**

**Doktorlik (DSc)dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации**  
**Content of the doctoral (DSc)dissertation abstract**

**Xabibullayev Davlatjon Yulchiboyevich**

Fuqarolik sud ishlarini yuritishning protsessual muammolari.....3

**Хабибуллаев Давлатжон Юлчибоевич**

Процессуальные проблемы гражданского судопроизводства..... 34

**Khabibullaev Davlatjon Yulchiboevich**

Procedural problems of civil proceedings.....67

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....72

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Y.22.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**XABIBULLAYEV DAVLATJON YULCHIBOYEVICH**

**FUQAROLIK SUD ISHLARINI YURITISHNING PROTSESSUAL  
MUAMMOLARI**

12.00.04 – Fuqarolik protsessual huquqi. Iqtisodiy protsessual huquqi. Hakamlilik jarayoni va mediatsiya

**Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.DSc/Yu191 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tsul.uz](http://www.tsul.uz)) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Rasmiy opponentlar:**

**Mamasiddiqov Muzaffarjon Musajonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Ro‘zinazarov Shuxrat Nuraliyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Sindorov Komil Oydinovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi  
qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish  
markazi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSc.07/30.12.2019.Y.22.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 30-mart soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36; faks: (99871) 233-37-48; e-mail: [info@tsul.uz](mailto:info@tsul.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1241-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Amir Temur ko‘chasi, 13-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 12-mart kuni tarqatildi.  
(2024-yil 12-mart kuni 43-raqamli reestr bayonnomasi).

**I.R. Rustambekov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
raisi, yuridik fanlar doktori, professor

**B.T.Musayev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
kotibi v.v.b., yuridik fanlar doktori,  
professor

**B.K.Xodjayev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik  
fanlar doktori, professor

## KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda World Justice Project xalqaro nodavlat tashkiloti tomonidan mamlakatlarning Huquq ustuvorligi indeksida (Rule of law) fuqarolik odil sudlov “fuqarolarning odil sudlovga erishish darajasining yuqoriligi, fuqarolik odil sudlovning diskriminatsiyadan holiligi, korrupsiyasiz fuqarolik odil sudlov, fuqarolik odil sudlovning bepulligi va hukumatning nomuvofiq ta’siridan holiligi, fuqarolik odil sudlovi asossiz kechiktirilishlarsiz amalga oshirilishi, fuqarolik odil sudlovning samarali amalga oshirilishi, nizolarni hal etishda muqobil mexanizmlarning ishlash samaradorligi va xolisligi kabi muhim indikatorlar orqali aniqlanmoqda”<sup>1</sup>. Bunda dunyoda sud ishlari yuritishni kechiktirish va xarajatlarini kamaytirish, sud qarorlarining jamiyatga ijobiy ta’siri, sud qarorlarida huquqiy aniqlik prinsipini qo‘llash dolzarb muammolardan bo‘lib qolmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida fuqarolik protsessida klassik turg‘unlik nazariyasi modelidan zamonaviy argumentatsiya nazariyasi modeliga o‘tish, sud tizimidagi turli xil tashqi, strategik ta’sirlarni oldini olish, fuqarolik sud ishlarini yuritishning protsessual mexanizmlarini takomillashtirish davr talabidir.

Jahonda turli huquqiy tizimlar va doktrinalar protsessual muammolarni ko‘pincha sud jarayonlarini tartibga soluvchi tegishli jarayonlar va qoidalarni takomillashtirish va rivojlantirish orqali hal etmoqda. Fuqarolik sud ishlarini yuritishda odil sudlovni samaradorligini oshirishda Due process<sup>2</sup> (qonunga muvofiq shaxslarga adolatli va xolis munosabatda bo‘lish), Res Judicata<sup>3</sup> (hal qilingan ish), Procedural fairness<sup>4</sup> (protsessual adolat), Procedural-justice<sup>5</sup> (protsessual odil sudlov) huquqiy doktrinalari hamda Open justice (ochiq odil sudlov) va Open court principle<sup>6</sup> (ochiq sud tamoyili) prinsiplarini tatbiq qilishga doir tadqiqotlar muhim o‘rin egallaydi. Fuqarolik sud ishlarini yuritishga oid protsessual muammolar muayyan ilmiy metodologik yondashuvlarni o‘rganishni va tahlil etishni taqozo etadi.

Respublikamizda mazkur huquqiy doktrina va printsiplarni mazmun-mohiyatini fuqarolik protsessual qonunchilikka singdirish, sud hujjatlarini qabul qilishda adolatni ta’minlash, fuqarolarning sudga bo‘lgan ishonchini ortishi bo‘yicha sohada tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi hamda 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi farmonlarida ham fuqarolarning odil sudlovga erishish darajasini oshirish, sud protsessida tomonlarning haqiqiy tenglik va tortishuv tamoyillarini ro‘yobga chiqarish, sud tizimini bosqichma-bosqich raqamlashtirish kabi muhim ustuvor

<sup>1</sup> Siyosiy-huquqiy sohadagi xalqaro reyting va indeksning sharhi. Mualliflar jamoasi. –Toshkent: Akadernashr. YUSAID, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2023. –B.32

<sup>2</sup> [https://www.law.cornell.edu/wex/du\\_e\\_process](https://www.law.cornell.edu/wex/du_e_process)

<sup>3</sup> Huquq olami. –Toshkent. Yuridik adabiyotlar Publish, 2023-y. -B.150-165.

<sup>4</sup> <https://www.jstor.org/stable/764676>

<sup>5</sup> <https://law.yale.edu/justice-collaboratory/procedural-justice>

<sup>6</sup> [https://commons.allard.ubc.ca/cgi/viewcontent.cgi?referer=&httpsredir=1&article=1082&context=fac\\_pubs;](https://commons.allard.ubc.ca/cgi/viewcontent.cgi?referer=&httpsredir=1&article=1082&context=fac_pubs;)  
[https://en.wikipedia.org/wiki/Open\\_court\\_principle](https://en.wikipedia.org/wiki/Open_court_principle)

vazifalar belgilangan<sup>1</sup>. Mazkur vazifalar ushbu sohadagi qonunchilikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirishni, shuningdek amaldagi qonunchilikda fuqarolik sud ishlarini yuritishning maqsad va vazifalari sifatida Procedural fairness (protsessual adolat) doktrinasini mazmun-mohiyati to'liq qamrab olinmaganligi, protsess ishtirokchilari tarkibi aniq ko'rsatilmaganligi, sudda bir guruh shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga oid ishlarni ko'rishning protsessual tartib-taomillarini belgilash, da'vo tartibida, buyruq tartibida, alohida tartibda ishlarni yuritishda sud amaliyotida kelib chiqayotgan muammolarni ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etishni taqozo etadi. Sud statistik ma'lumotlariga ko'ra, "fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar tomonidan birinchi instantsiyada ko'rilgan ishlar (sud buyruqlari bilan birga) soni respublika bo'yicha 2020-yilda 291 132 ta, 2021-yilda 518 087 ta, 2022-yilda 863 883 ta, 2023-yilda 943 892 tani tashkil etgan"<sup>2</sup>. Yildan yilga fuqarolik ishlari soni ortib borishi esa o'z navbatida sudyalarning ish hajmi va yuklamalarining ortishiga, pirovardida odil sudlovning sifati va samarali amalga oshirilishiga salbiy ta'sir etmoqda. Bu esa fuqarolik sud ishlarini yuritishning protsessual mexanizmlarini takomillashtirishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi (bundan buyon matnda FPK deb yuritiladi) (2018), "Sudlar to'g'risida"gi (2021), "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi (2001), "Advokatura to'g'risida"gi (1996), "Mediatsiya to'g'risida"gi (2018) qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-iyuldagi PF-5482-son "Sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish va sud hokimiyati organlariga ishonchni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 24-iyuldagi PF-6034-son "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi, 2023-yil 16-yanvardagi PF-11-son "Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonlari va 2020-yil 3-sentabrdagi PQ-4818-son "Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi bo'yicha bajarilgan.

**Dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>3</sup>.** Fuqarolik sud ishlarini yuritishning protsessual muammolari bo'yicha ilmiy

<sup>1</sup> Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023 y., 06/23/158/0694-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son.

<sup>2</sup> <https://stat.sud.uz/fib.html>

<sup>3</sup> Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi: <https://chicagounbound.uchicago.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=6277&context=uclev>; <https://www.turiba.lv/storage/files/summary-neimane-en.pdf>; <https://digitalcommons.osgoode.yorku.ca/phd/75/>; <https://core.ac.uk/download/pdf/232966674.pdf>; <https://www.disserscat.com/content/problema->

tadqiqotlar The University of Chicago Law School (AQSh), Turiba University (Latviya), Osgoode Hall Law School of York University (Kanada), University of Massachusetts (AQSH), Saratov davlat yuridik akademiyasi (Rossiya), Sankt-Peterburg davlat universiteti (Rossiya) kabi oliygohlarda tadqiqot ishlari olib borilgan.

Fuqarolik sud ishlarini yuritishning protsessual muammolari bo'yicha jahonda olib borilayotgan tadqiqotlar natijasida qator ilmiy natijalarga erishilgan, jumladan: fuqarolik ishlarni tez va kam xarajat asosida hal qilish asoslantirilgan (The University of Chicago Law School), fuqarolik protsessida fuqarolarning odil sud muhokamasiga bo'lgan huquq asoslantirilgan (Turiba University), fuqarolik sud ishlarini yuritishda shaffoflikni ta'minlashda tashqi va ichki omillar asoslab berilgan (University of Massachusetts), fuqarolik sud ishlarni yuritishda ochiqlik, oshkoralik, shaffoflikni ta'minlash hamda fuqarolik sud ishlarini unifikatsiyalash va differentsiallashtirish zarurati isbotlangan (Saratov davlat yuridik akademiyasi, Sankt-Peterburg davlat universiteti).

Hozirgi vaqtda dunyoda fuqarolik sud ishlarini yuritishning protsessual muammolari bo'yicha, xususan quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: sud hujjatlarida huquqiy aniqlik printsiplari, protsessual adolat (procedural fairness) va protsessual odil sudlov (procedural-justice), fuqarolik sud ishlarini yuritishni raqamlashtirish va virtuallashtirish, sudda nizolarni samarali hal etish tendentsiyalari, fuqarolik sud ishlarini unifikatsiyalash, protsessual huquqlarni suiiste'mol qilish va boshqalar.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'zbekistonda fuqarolik sud ishlarini yuritishning protsessual muammolari mamlakatimiz huquqshunos olimlari Sh.Sh.Shoraxmetov, E.Egamberdiyev, S.A.Yakubov, M.K.Azimov, M.M.Mamasiddiqov, Z.N.Esanova, O.Okyulov, Sh.N.Ro'zinazarov, B.Samarxodjayev, M.Nasullayev, M.M.Tojiboyev, S.A.Maripova, K.K.Olimova, X.A.Kuchkarov, O.Sh.Pirmatov, S.F.Inoyatova, J.D.Axmedov, Q.X.Mirsagatov, U.T.Shamshidinov, A.Xakberdiyev kabi olimlarning ilmiy ishlarida fuqarolik sud ishlarini yuritishning u yoki bu jihatlari o'rganilgan. Xususan, Sh.Shoraxmetov tomonidan fuqarolik protsessual huquqining umumiy masalalari, S.A.Yakubov fuqarolik protsessida taraflar muammolarini, E.Egamberdiyev fuqarolik protsessida da'vo muammolarini, M.K.Azimov uy-joy nizolarida prokuror ishtiroki, M.M.Mamasiddiqov mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari, Z.N.Esanova bolalar tarbiyasi bilan bog'liq nizoli ishlarni sudda ko'rishning o'ziga xos protsessual xususiyatlari, M.Nasullayev yuridik faktlarni belgilash to'g'risidagi ishlarni sudda ko'rish, K.Olimova fuqarolik protsessida vakillik institutining muammolari, S.F.Inoyatova hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan bog'liq ishlarni yuritish, M.M.Tojiboyev fuqarolik ishlari bo'yicha sud hal qiluv qarorlarining nazariy va amaliy masalalari, X.A.Qo'chqorov fuqarolik protsessida ishlarni soddalashtirilgan tartibda ko'rish, S.A.Maripova fuqarolik protsessida mediatsiyani qo'llash, O.Sh.Pirmatov fuqarolik

sud ishlarini raqamlashtirish va virtuallashtirish, J.D.Axmedov fuqarolik ishlarini ko‘rishda dalillarni baholashning protsessual masalalari, U.Shamshidinov fuqarolik sud ishlarini yuritishda prokuror ishtirokini takomillashtirish masalalari tahlil etilgan.<sup>1</sup>

Fuqarolik sud ishlarini yuritishning protsessual muammolari MDH mamlakatlarining bir qator olimlari, xususan, M.K.Treushnikov, V.V.Yarkov, M.A.Vikut, D.M.Chechot, M.S.Shakaryan, G.L.Osokina, A.A.Demichev, A.T.Bonner, I.A.Jeruolis, Y.A.Naxova, N.M.Kostrova, M.Y.Lebedev, I.V.Reshetnikova, V.V.Samsonov, A.S. Fedina, Y.G. Fomenko, L.S.Anosova, V.I.Anishina, N.A.Artebyakina, G.O.Abolonin, Y.V.Slepchenko, V.V. Shpak, V.M.Sherstyuk, P.D.Pechegina, S.A.Xalatov, N.N.Tkacheva, O.P.Chudayeva, A.V.Sixaskiy, Ya.Vafin, A.O.Dolgopyat, G.T.Yermoshin, D.Y.Zaykov, A.A.Jukov va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida yoritilgan. Xususan V.M.Sherstyuk fuqarolik protsessual huquqi tizimining asosiy muammolarini o‘rgangan bo‘lsa, Y.V.Slepchenko fuqarolik sud ishlarini yuritish differensiyalash va bixillashtirish muammolarini, A.V.Sixaskiy fuqarolik ishlari bo‘yicha odil sudlovni samaradorligini nazariy muammolarini, V.V.Shpak fuqarolik sud ishlarini yuritishning optimallashtirish masalalarini o‘rganganligini qayd etib o‘tish joiz.<sup>2</sup>

Xorijiy mamlakatlarda fuqarolik sud ishlarini yuritishni protsessual masalalari Andrew Beck, Brandon L.Bartels., Christopher D. Jonston, Kevin M. Klermont, Mandel R, Constantine Theophilopoulos, C.M.Van Heerden, A.Boraine, A.W.T.Rovan, Yao Tian, Cheng Yanguang, Solanki S, Lash K.T., French R., Heinrich Schnitger kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Biroq, mamlakatimizda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari natijasida fuqarolik sud ishlarini yuritishning protsessual muammolari alohida kompleks monografik tarzda tadqiq etilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Tadqiqot ishi Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Fuqarolik sud ishlarini yuritishning protsessual muammolari” (2020-2023-y.y.) mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** fuqarolik sud ishlarini yuritishning protsessual muammolariga doir fuqarolik protsessual qonunchiligini takomillashtirish va sud amaliyoti samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

fuqarolik sud ishlarini yuritish tushunchasi va vazifalariga oid ilmiy-nazariy qarashlar va yondashuvlarni tadqiq etish;

fuqarolik sud ishlarini yuritish turlari, fuqarolik protsessi bosqichlari va o‘ziga xos xususiyatlarini yoritib berish;

fuqarolik sud ishlarini yuritish prinsiplari tushunchasi, tasnifini o‘rganish, bu boradagi asosiy yondashuvlarni tahlil qilish;

<sup>1</sup> Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

<sup>2</sup> Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

fuqarolik sud ishlarini yuritish prinsiplari turlari va ularni amalga oshirish borasidagi muammolarni o'rganish;

fuqarolik sud ishlarini yuritish prinsiplarini takomillashtirishga oid takliflar ishlab chiqish;

fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilari, sud (sudya), sudya yordamchisining (sud majlisi kotibi) protsessual huquqiy maqomi to'g'risida ilmiy-nazariy qarashlarni tahlil qilish;

ishda ishtirok etuvchi shaxslarning protsessual huquqiy holatini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish;

odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar va ularning protsessual vazifalari bilan bog'liq ayrim muammolarni o'rganish;

da'vo tartibida yuritiladigan ishlarni sudda ko'rishning moddiy va protsessual muammolarini aniqlash va ularning yechimlarini taklif qilish;

alohida tartibda ko'riladigan ishlarning ayrim protsessual masalalariga oid milliy va xorijiy mamlakatlar qonunchiligini o'rganish va takliflar ishlab chiqish;

buyruq tartibida ish yuritishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilish;

fuqarolik sud ishlarini yuritishni raqamlashtirish istiqbollari tahlil etish;

fuqarolik sud ishlarini yuritishning protsessual mexanizmlariga oid fuqarolik protsessual qonunchiligi va sud amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan ibopat.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida fuqarolik sud ishlarini yuritishning protsessual tartibi bilan bog'liq huquqiy munosabatlar tizimi va u bilan bog'liq holda fuqarolik protsessining qoidalari va ularni qo'llash amaliyotini takomillashtirish muammolari olingan.

**Tadqiqotning predmetini** birinchi instansiyada fuqarolik sud ishlarini yuritishni protsessual tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, ularni sud amaliyotida qo'llash va fuqarolik protsessual huquqi fanida mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy, amaliy va nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda tarixiylik, tizimli-huquqiy tahlil, qiyosiy huquqiy, induksiya va deduksiya, statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullar qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

fuqarolik sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonunchilik buyruq tartibidagi ishlarni, da'vo tartibidagi ishlarni, alohida tartibda yuritiladigan ishlarni, hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan bog'liq ishlarni va chet davlat sudlarining hamda chet davlat hakamlik sudlarining (arbitrajlarining) hal qiluv qarorlarini tan olish va ijroga qaratish bilan bog'liq ishlarni ko'rib chiqish hamda hal etish tartibini belgilashi asoslantirilgan;

ish bo'yicha taraf bo'lib qatnashayotgan tashkilot tugatilgan bo'lsa, agar protsessual huquqiy vorislikka yo'l qo'yilmasa sud ish yuritishni tugatish kerakligi asoslantirilgan;

sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish maqsadida fuqarolik ishlari bo'yicha sudga arizalar elektron shaklda murojaat

qilish mumkinligi, sud jarayonlarida videokonferensaloqa rejimida sud majlisida ishtirok etish asoslantirib berilgan;

ijro hujjati sifatida sud buyrug‘i yo‘qotilgan taqdirda u bo‘yicha dublikat berish masalasi hamda ijro hujjatini dublikatini berish to‘g‘risida kimlar sudga ariza berishi, arizani berish muddati va uni ko‘rib chiqish muddatlarini aniq belgilash asoslantirib berilgan;

voyaga yetmagan shaxsni to‘liq muomalaga layoqatli deb e‘lon qilish (emansipatsiya) fuqarolik sudlari tomonidan alohida tartibda ko‘riladigan ish turi sifatida belgilanishi, shuningdek ushbu ish bo‘yicha ariza berish, arizani ko‘rib chiqish tartibi, mazkur ish bo‘yicha sudning hal qiluv qarori asoslab berilgan;

fuqarolik protsessining bosqichlari fuqarolik sud ishlarini yuritishning vazifalarini amalga oshirish, fuqarolik ishlarini to‘g‘ri va o‘z vaqtida ko‘rib chiqish hamda hal etish kabi muhim maqsadga yo‘naltirilgan protsessual harakatlarning yig‘indisi hisoblanishi, fuqarolik protsessual huquqda erkin huquq printsipli o‘zining yoki boshqa shaxslarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari yoxud qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida protsessni vujudga keltirish, harakatlantirish va tugatish bilan bog‘liq bo‘lgan protsessual huquqlardan foydalanish erkinligi ekanligi bilan bog‘liq ilmiy-nazariy tushunchalar ishlab chiqilgan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

fuqarolik sud ishlarini yuritishning protsessual mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 1, 2, 9,10, 12, 24, 39, 44, 50, 56, 63, 116, 134, 171, 178, 181, 293, 355, 306-moddalariga tegishli qo‘shimcha va o‘zgartirish kiritish, yangi 7<sup>1</sup>-modda, 16<sup>1</sup>-modda, 16<sup>2</sup>-modda, 38<sup>1</sup>-modda, 67<sup>1</sup>-modda hamda “26<sup>1</sup>-BOB. Bir guruh shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rish” nomli yangi bob kiritish asoslantirib berilgan;

sun‘iy intellektni fuqarolik sud ishlarini yuritish jarayoniga tatbiq etish, xususan nizosiz, buyruq tartibida ko‘riladigan va soddalashtirilgan tartibda ko‘riladigan ishlar toifasiga qo‘llash asoslantirib berilgan;

fuqarolik sud jarayonlarini raqamlashtirish, sud chiqargan hujjatlarini boshqa davlat organi, tashkilotlar bilan integratsiya qilish, xususan, sudlar tomonidan, fuqaroni muomala layoqatini cheklash yoki muomalaga layoqatsiz deb topish, voyaga yetmagan shaxsni to‘liq muomalaga layoqatli deb e‘lon (emansipatsiya) kabi turdagi ishlar bo‘yicha mazkur shaxslar ro‘yxati, sud hal qiluv qarorlari haqidagi ochiq ma‘lumotlar bazasini shakllantirish asoslantirib berilgan;

fuqarolarga sud orqali himoyalanihd qulayliklar yaratish maqsadida fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlar binosida maxsus terminal o‘rnatilishi va unda, fuqarolik ishi qachon, qaysi vaqtda, qaysi sud zalida ko‘rilishi, qaysi sudya ishni ko‘rishi, sud raisi va sudyalarning qabul kunlari, davlat boji to‘lash, da‘vo ariza, ariza namunalari kabi bir qator interaktiv xizmatlar ko‘rsatilishini ta‘minlash asoslab berilgan;

fuqarolik sud ishlarini yuritishning protsessual mexanizmlarini yanada takomillashtirish istiqbollari asoslantirilgan;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining bir qator qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi takliflar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi.** Tadqiqot natijalari milliy va xorijiy davlatlar qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, sud amaliyotiga asoslangan hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan 2020-2022 va 2023-yilning 9-oyida ko‘rilgan ishlarning statistik ma’lumotlaridan foydalanilgan, shunidek xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o‘tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e’lon qilingan va vakolatli davlat organlari tomonidan natijalarning joriy qilinishi bo‘yicha dalolatnomalar bilan tasdiqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, unda aks etgan ilmiy-nazariy g‘oyalar, qonunchilikka bildirilgan takliflardan fuqarolik protsessual huquqi sohasida ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish, qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlash, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda “Fuqarolik protsessual huquqi”, Fuqarolik protsessida advokat ishtiroki” kabi fanlarini o‘qitishda va metodik tavsiyalar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati fuqarolik sud ishlarini yuritishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni, huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishda, shuningdek fuqarolik ishlari bo‘yicha sud amaliyotida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Fuqarolik sud ishlarini yuritishning protsessual muammolari bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

fuqarolik sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi qonunchilik buyruq tartibidagi ishlarni, da’vo tartibidagi ishlarni, alohida tartibda yuritiladigan ishlarni, hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan bog‘liq ishlarni va chet davlat sudlarining hamda chet davlat hakamlik sudlarining (arbitrajlarining) hal qiluv qarorlarini tan olish va ijroga qaratish bilan bog‘liq ishlarni ko‘rib chiqish hamda hal etish tartibini belgilashga oid taklifi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 1-moddasi ikkinchi qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari Qo‘mitasining 2022-yil 6-yanvardagi 06/1-12-son dalolatnomasi). Mazkur taklifni amalga oshirilishi fuqarolik sud ishlarini yuritish turlarini aniq belgilashga imkon bergan;

ish bo‘yicha taraf bo‘lib qatnashayotgan tashkilot tugatilgan bo‘lsa, agar protsessual huquqiy vorislikka yo‘l qo‘yilmasa sud ish yuritishni tugatish kerakligi to‘g‘risidagi taklifi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 124-moddasi 7-bandiga asos sifatida kiritilishida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari Qo‘mitasining 2022-yil 6-yanvardagi 06/1-12-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning amalga oshirilishi fuqarolik sudlari tomonidan sud amaliyotida uchrayotgan protsessual muammolarni bartaraf etishga olib kelgan;

sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish maqsadida fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga arizalar elektron shaklda murojaat qilish, sud jarayonlarida videokonferensaloqa rejimida sud majlisida ishtirok etish mumkinligi bo‘yicha takliflari O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 188, 209-moddalari mazmunini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Korrupsiyaga

qarshi kurashish va sud-huquq masalalari Qo‘mitasining 2022-yil 6-yanvardagi 06/1-12-son dalolatnomasi). Ushbu taklifni amalga oshirilishi fuqarolar va tashkilotlarning sudga elektron murojaat qilish va ortiqcha qog‘ozbozlikni bartaraf etish imkoniyatini yaratgan va ularning vaqtini tejashga xizmat qilgan;

ijro hujjati sifatida sud buyrug‘i yo‘qotilgan taqdirda u bo‘yicha dublikat berish masalasi hamda ijro hujjatini dublikatini berish to‘g‘risida kimlar sudga ariza berishi, arizani berish muddati va uni ko‘rib chiqish muddatlarini aniq belgilash to‘g‘risidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 450-moddasi nomi va mazmunini bayon etishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari Qo‘mitasining 2022-yil 6-yanvardagi 06/1-12-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi ijro hujjati sifatida sud buyrug‘ini ijro etish bo‘yicha amaliyotda uchrayotgan muammolarni bartaraf etishga xizmat qilgan;

voyaga yetmagan shaxsni to‘liq muomalaga layoqatli deb e‘lon qilish (emansipatsiya) fuqarolik sudlari tomonidan alohida tartibda ko‘riladigan ish turi sifatida belgilanishi to‘g‘risidagi taklifi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 293-moddasi, shuningdek, ushbu ish bo‘yicha ariza berish, arizani ko‘rib chiqish tartibi, mazkur ish bo‘yicha sudning hal qiluv qarori bo‘yicha takliflari “Voyaga yetmagan shaxsni to‘liq muomalaga layoqatli deb e‘lon qilish (emansipatsiya)” deb nomlangan 34-bobni shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari Qo‘mitasining 2022-yil 6-yanvardagi 06/1-12-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi alohida tartibda ko‘riladigan ishlar turini kengayishiga hamda fuqarolarning moddiy qonunchilikda belgilangan huquqlarini to‘laqonli sudlar tomonidan himoya qilinishini amalda ta‘minlashga xizmat qilgan;

fuqarolik protsessi bosqichlari va erkin huquq (dispozitivlik) prinsipi tushunchalariga oid konseptual g‘oya va takliflar “Fuqarolik protsessual huquqi” darsligida o‘z ifodasini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2020-yil 7-dekabrda 648-sonli buyrug‘i, 648-102 raqamli guvohnoma). Ushbu konseptual g‘oya va takliflar mazkur mutaxassislik bo‘yicha ta‘lim olayotgan tinglovchi, talabalar, magistrant va amaliyot xodimlarining fuqarolik protsessi bosqichlari, erkin huquq (dispozitivlik) prinsipi haqida bilim, o‘quv va amaliy ko‘nikmalarining shakllanishi va rivojlanishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy anjumanda, jumladan 3 ta xalqaro, 3 ta respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya va davra suhbatlarida sinovdan o‘tgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Mazkur tadqiqot natijalari bo‘yicha jami 25 ta ilmiy ish, jumladan, 2 ta monografiya, ilmiy jurnallar va to‘plamlarda 23 ta (shundan 7 tasi xorijiy nashrlarda) ilmiy maqola va tezislar chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 253 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirishi** (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)da tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, tadqiq etilayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi uning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, izlanish natijalarining ishonchligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e‘lon qilinganligi va dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Fuqarolik sud ishlarini yuritish tushunchasi, vazifalari, turlari va bosqichlarining ilmiy-nazariy asoslari”** nomli birinchi bobida fuqarolik sud ishlarini yuritish tushunchasi va vazifalari, fuqarolik sud ishlarini yuritish turlari, bosqichlari ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

Tadqiqot ishida fuqarolik sud ishlarini yuritish tushunchasiga oid qator olimlar (Sh.Shoraxmetov, E.Egamberdiyev, M.M.Mamasiddikov, Z.N.Esanova, N.A.Chechina, D.M. Chechota, K.S. Yudelson, M.K.Treushnikov, A.A.Vlasov va boshqalar)ning qarashlari tahlil qilinib, fuqarolik sud ishlarini yuritish tushunchasiga – fuqarolik ishini umumiy yurisdiksiya sudi tomonidan ko‘rib chiqish va hal qilishda sud va boshqa subyektlar o‘rtasida yuzaga keladigan fuqarolik protsessual qonunchiligi bilan tartibga solinadigan protsessual harakatlar va fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar majmui ekanligi haqida mualliflik ta‘rifi ishlab chiqilgan.

Dunyoda fuqarolik protsessual huquqi fani nazariyasida Procedural fairness (protsessual adolat) va Procedural-justice (protsessual odil sudlov) kabi ikkita asosiy doktrina mavjud. O‘zbekistonda fuqarolik sud ishlarini yuritish Procedural-justice (protsessual odil sudlov) doktrinasida sudlar fuqarolik ishlarini protsessual qonuniylik talablari bo‘yicha hal qilishi belgilangan. Dissertant Due process (tegishli jarayon) huquqiy doktrinasini qonunga muvofiq shaxslarga adolatli va xolis munosabatda bo‘lishni ta‘minlashini, Procedural fairness (protsessual adolat) doktrinasini tahlil qilish natijasida protsessual adolatni fuqarolik sud ishlarini yuritishning asosiy vazifalari sifatida mustahkamlanishi va fuqarolik protsessual qonunchilikka tegishli o‘zgarishlarni kiritish kerak, degan xulosaga keladi.

Tadqiqotchi Rossiya, Belarus, Qozog‘iston davlatlarining qonunchilik tajribasini o‘rganish natijasida fuqarolik sud ishlarini yuritish vazifalari qatoriga sud hujjatlari va boshqa hujjatlarni ijro etishni ta‘minlashni ham kiritish kerak degan taklifni ilgari suradi. Muallif o‘z fikrini sud tomonidan nizolashilayotgan huquq va manfaatlar yuzasidan fuqarolik ishi to‘g‘ri, o‘z vaqtida ko‘rib chiqilib, hal qiluv qarori chiqarilsa, biroq u o‘z vaqtida ijro etilmasa, fuqarolik sud ishlarini yuritishdan asosiy maqsadiga erishib bo‘lmazligi, faqatgina sudning hal qiluv qarori asosida yozilgan ijro varaqasini ijro etish orqaligina buzilgan huquq yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaat himoya qilinishi mumkinligi bilan asoslaydi.

Dissertant P.F.Yeliseykin, I.A.Jeruolis, D.M.Chechot, A.A.Melnikova kabi olimlarning fikrlarini o'rgangan holda fuqarolik sudida ish yuritish turlarini qanday mezonlarga ko'ra ajratish bo'yicha ularning mazmun-mohiyati va shartlarini fuqarolik protsessual qonunchilikda aniq belgilash lozim degan xulosaga keladi. Bu borada Rossiya, Ozarbayjon, Qozog'iston, Belarus fuqarolik protsessual qonunchiligi qiyosiy tahlil etilib, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi 1-moddasiga "Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan yuzaga kelmaydigan qarorlari hamda ular mansabdor shaxslarining shunday harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ishlarni yuritish" va "Soddalashtirilgan tartibda ish yuritish"ni ham fuqarolik sud ishlarini yuritish turlari sifatida kiritish taklifini ilgari suradi. Muallif ushbu ishlarda ishtirok etuvchi shaxslarning subyekt tarkibining protsessual xususiyatlari, sud ishlarini yuritishning protsessual mohiyati (ishning holatlarini tekshirish bo'yicha sudning mumkin bo'lgan harakatlarining xarakteri, protsessual mazmuni va chegaralari, ruxsat etilgan isbotlash vositalari), sud qarorlarining protsessual oqibatlari bilan bog'liq jiddiy farqlarning mavjudligi, ularning qonuniy kuchi va ijro etish xususiyatlaridan kelib chiqib, fuqarolik sud ishlarini yuritishning mustaqil turi sifatida belgilanishini maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Dissertatsiyaning "**Fuqarolik sud ishlarini yuritish prinsiplarining umumiy tavsifi**" nomli ikkinchi bobida fuqarolik sud ishlarini yuritish prinsiplari tushunchasi va tasnifi, fuqarolik sud ishlarini yuritish prinsiplari turlari va ularni amalga oshirish borasidagi muammolar, fuqarolik sud ishlarini yuritish prinsiplarini takomillashtirish masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq qilingan.

Tadqiqotchining fikricha, fuqarolik sud ishlarini yuritish prinsiplari tushunchasiga doktrinal va pozitivistik yondashuvlar mavjud va fuqarolik protsessual huquqi prinsiplari tushunchasiga doktrinal yondashuv bahsli hisoblanadi. Dissertant fuqarolik sud ishlarini yuritish prinsiplari tushunchasiga pozitivistik yondashuv tarafdorlari bo'lgan Sh.Sh.Shoraxmetov, E.Egamberdiyev, Z.N.Esanova, M.K.Treushnikov, Kevin M. Klermont, Andrew Beck, R.Mandel, L.L.Shamshurin, V.V.Molchanov, T.B.Lipatova, A.A.Demichev, L.F.Lazutina, L.I.Vasilevskiy, N.A.Chechinalarning fikrlarini tahlil qilgan holda fuqarolik protsessual huquqining prinsiplari qonunlarda mustahkamlanishi lozimligini ta'kidlaydi. Chunki prinsiplarning qonunda mavjudligi faqat, qonun hujjatining "chiroyi" yoki uning o'zidan yuqori va boshqa huquqiy aktlarga, xalqaro huquq normalariga mosligi uchun emas, balki haqiqatda ham asosiy qoida sifatida protsessda "ishlashi", mazkur prinsiplar asosida sudgacha, sud va suddan keyingi harakatlar amalga oshirilishi - uning mohiyati, zarurligining talabidir. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, tadqiqotchi fuqarolik protsessual huquqining prinsiplari tushunchasiga ilmiy ta'rif ishlab chiqadi.

Ushbu bobda tadqiqotchi fuqarolik protsessual qonunchiligida sudyalarning mustaqilligi va xolisligiga hamda odil sudlovni amalga oshirishga ta'sir qiluvchi normalar mavjudligini ko'rstaib o'tadi. Muallif, O'zbekiston Respublikasi FPKning 20-moddasi "Ishni ko'rishda sudyaning takror ishtirok etishiga yo'l qo'yilmasligi" deb nomlangan bo'lsa-da, ushbu moddaning uchinchi va to'rtinchi qismidagi

qoidalar sudyani takror ishtirok etishiga yo‘l qo‘yishini, bu esa odil sudlovning xolisligi, mustaqilligi, sud ishlarini yuritishning obyektivligi, adolatli hal etilishiga putur yetkazadi degan xulosaga keladi. Bu borada tadqiqotchi xorijiy davlatlar (AQSH Qonunlar to‘plamining 28-bo‘limi 1-qismining “Sudya yoki magistratni chetlashtirish” deb nomlangan 21-bobining 47-paragrafi, Latviya Fuqarolik protsessual kodeksi 18-moddasi) tajribasidan kelib chiqib, ishni apellyatsiya instansiyasi sudida ko‘rishda ishtirok etgan sudya shu ishni apellyatsiya instansiyasi sudida ko‘rishda takror ishtirok etishi mumkin emasligi, xuddi shunday kassatsiya instansiyasi sudida ko‘rishda ishtirok etgan sudya shu ishni kassatsiya instansiyasi sudida ko‘rishda takror ishtirok etishi mumkin emasligi haqidagi normani kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Tadqiqotchi sud muhokamasining oshkoraligi prinsipini tahlil qilar ekan ochiq odil sudlov (Open justice) va ochiq sud tamoyili (open court principle) fuqarolik sud ishlarini yuritishda muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlab, ochiq odil sudlov (Open justice) sud hokimiyatiga bo‘ysunadigan shaxslarning huquqlarini himoya qilish va jamoatchilik nazoratini ta’minlash uchun sud jarayonlarining shaffof va xalq nazorati ostida o‘tkazilishini talab qiladigan huquqiy prinsip ekanligini, ochiq sud tamoyili (open court principle) sud jarayonlari ochiq va jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari uchun ochiq bo‘lishini talab qilishini asoslantiradi. Muallif E.K.Sobirov, A.K.Gorbuz, V.I.Anishina, Y.G.Fomenko, S.V.Potapenko, L.S.Anosovalarni qarashlarini o‘rganib chiqib, ochiqlik, oshkoralik, shaffoflik tushunchalari umumiy mazmun-mohiyati jihatidan bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, ular o‘rtasida nisbatan sezilarli ravishda xilma-xillik, farq mavjud degan xulosaga keladi. Shundan kelib chiqib, sud muhokamasini oshkoraligi deganda sud jarayoni, ishni ko‘rib chiqish tartibini tushunishimiz kerakligini, sud ishlarini ochiqligi deganda birinchi navbatda sudlar faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatini ta’minlaydigan, davlat hokimiyatining bir tizimi sifatida sud faoliyatining ochiqligi, sud hujjatlarini Internet saytlarida ochiq shaxssizlantirilgan holda e’lon qilinishi, har bir insonning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida (33-moddasi) belgilangan shaxsiy huquq va erkinliklari sifatida sudlar faoliyati to‘g‘risida axborot olish huquqini ta’minlanishi tushunilishi kerakligini asoslab beradi.

Tadqiqotchi huquqshunos olimlar Sh.Shoraxmetov, E.Egamberdiyev, Z.Esanova, V.M.Lebedovning fikrlarini tahlil qilib, taraflarning teng huquqliligi prinsipiga mulkiy jihatdan emas, balki protsessual nuqtai nazardan yondashish kerakligini, taraflarning teng huquqliligi protsessual ma’nodagi tenglikda, ya’ni taraflarning protsessual huquqlar, imtiyozlar va majburiyatlardan teng foydalanishida namoyon bo‘lishini asoslaydi.

Muallifning fikricha, FPKning “Fuqarolik sud ishlarini yuritish prinsiplari” deb nomlangan 2-bobida “Qonuniylik” alohida prinsip sifatida o‘z ifodasini topmaganligini, M.K.Treushnikov, I.M.Zaysev, A.S.Fedina, A.O.Dolgopyat kabi olimlarning fikrlari hamda xorijiy davlatlar fuqarolik protsessual qonunchiligini o‘rganib chiqib, qonuniylik prinsipi fuqarolik protsessual huquqining alohida prinsipi sifatida qonunchilikka kiritilishini asoslab beradi.

Muallif ushbu bobda sudlar tomonidan sud hal qiluv qarorlarini aniq, asosli, adolatli, barcha uchun tushunarli qilib chiqarilishida **huquqiy aniqlik prinsipi** yetishmasligini ta'kidlab o'tadi. Chunki, ushbu prinsip tushunchasi, mazmun-mohiyati to'g'risida FPKda hech qanday qoida belgilanmaganligini, bu borada milliy va xorijiy olimlarning (B.Xodjayeov, S.Lewis, S.Solanki, K.T.Lash) fikrlarini tahlil qilib, huquqiy aniqlik prinsipi zamirida yotgan stare decisis (bir qarorda turish) doktrinasini qo'llash orqali erishish mumkinligini qo'llab quvvatlaydi. Muallif ushbu prinsipni amalga oshirish mexanizmini bosqichma-bosqich joriy qilish, ya'ni "Oliy sud Plenum qarori-umumlashma-hal qiluv qarori" asosida joriy etishni taklif etadi. Tadqiqotchi huquqiy aniqlik prinsipi tushunchasiga mualliflik ta'rifini ishlab chiqadi va O'zbekiston Respublikasi FPKning 2-bobiga yangi prinsip sifatida "Huquqiy aniqlik prinsipi"ni kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Muallif erkin huquq prinsipi fuqarolik protsessini boshlab beruvchi, boshqa prinsiplarni harakatga keltiruvchi, ularga rahbarlik vazifasini bajaruvchi prinsip degan xulosaga keladi. Dissertant hozirgi kunda sud amaliyotida dispozitivlik prinsipini fuqarolik protsessual qonunchilikda aniq normada berilmaganligi, ushbu prinsipni amalda qo'llashda turli xil muammolarni keltirib chiqarishini ta'kidlab o'tadi. Bu borada Estoniya, Ukraina, Belarus, Armaniston FPKdagi ijobiy tajribani inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi FPKning 2-bobini "Erkin huquq (dispozitivlik) prinsipi" deb nomlangan 16<sup>1</sup>-modda bilan to'ldirishni taklif etadi.

Ushbu bobda dissertant, fuqarolik protsessida Due process (tegishli jarayon) doktrinasini asosiy mazmun-mohiyati fuqarolik ishlari bo'yicha taraflar o'z talab yoki e'tirozlarini qo'llab-quvvatlash uchun tegishli dalillarni taqdim etish huquqiga ega ekanligiga e'tibor qaratib, ushbu doktrinaning asosiy g'oyasi ham taraflar o'rtasida tortishuvchilik prinsipini ro'yobga chiqarish hisoblanishini ta'kidlab o'tadi. Muallif ushbu doktrinaning asosiy g'oyalarini mamlakatimiz fuqarolik protsessual qonunchilikka kiritish zarurligini, bu borada xorijiy davlatlar Rossiya, Qozog'iston, Ukraina kabi davlatlarning fuqarolik protsessual qonunchiligini qiyosiy tahlil etib, FPKning 10-moddasini mazmuni yangi tahrirda bayon etishni taklif etadi. Tadqiqotchi sud protsessida tomonlarning haqiqiy tenglik va tortishuv tamoyillarini ro'yobga chiqarish, tortishuvchilik prinsipini hayotga to'laqonli kiritish uchun sud protsessiga malakali mutaxassislarini, ya'ni advokatlarni jalb qilish va bu borada Germaniya, Rossiya Federatsiyasi, Ozarbayjon kabi davlatlarning ijobiy tajribasini o'rgangan holda O'zbekiston Respublikasi FPKda advokat ishtirok etishi shart bo'lgan ishlar ro'yxatini kiritish to'g'risida taklifni asoslantirib beradi.

Tadqiqotchi yana ushbu bobda fuqarolik sud ishlarini yuritishda protsess ishtirokchilarini protsessual huquqlarni suiste'mol qilish holatlari ko'payib borayotganligiga e'tibor qaratadi. Bu borada Q.S.Avezov, T.P.Podshivalov, D.Y.Zaykov kabi olimlarning fikrlarini o'rganib chiqib, protsessual huquqlarni suiste'mol qilish - bu qonunda nazarda tutilgan protsessual huquqlardan insofsiz foydalanish bo'lib, uning maqsadi sud protsessining normal borishiga to'sqinlik qilish, sud jarayonlarini sekinlashtirish, muddatlarni cho'zish, sud protsessi ishtirokchilari vaqtini olish, ularga protsessual zarar yetkazishdir, degan ta'rifni ilgari suradi. Muallif O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21-moddasida inson o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, jamiyat

hamda davlatning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasligi shartligi belgilanganligini, Yaponiya, Germaniya, Bolgariya, Gretsiya kabi xorijiy davlatlar Konstitutsiyalarida ham huquqlarni suiiste'mol qilishni ta'qiqlash konstitutsiyaviy norma sifatida mustahkamlanganligini ta'kidlab, O'zbekiston Respublikasi FPKga "Protsessual huquqlarni suiiste'mol qilmaslik" prinsipini kiritish to'g'risida taklif ishlab chiqadi. Tadqiqotchi fikricha, ushbu prinsipni qonunchilikda mustahkamlanishi birinchidan, huquqlarni suiiste'mol qilishning har qanday shaklini oldini olishga qaratilgan profilaktik funksiyani bajaradi, ikkinchidan, fuqarolik protsessi ishtirokchilarining protsessual huquqlari mazmunini aniq belgilash, ushbu huquqlarni amalga oshirish chegaralarini belgilash va ularni amalga oshirish mexanizmini optimallashtirish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning **"Fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilari va ularning huquqiy maqomi bilan bog'liq muammolar"** deb nomlangan uchinchi bobida fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilari to'g'risida ilmiy-nazariy qarashlar, ishda ishtirok etuvchi shaxslar turlari va ularning protsessual huquqiy holati bilan bog'liq muammolar, odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar va ularning protsessual vazifalari bilan bog'liq ayrim masalalar tahlil qilingan.

Muallif, fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar subyektlari turlari to'g'risida huquqshunos olimlar E.Egamberdiyev, S.A.Yakubov, M.Mamasiddiqov, M.K.Treushnikov, M.S.Shakaryanning fikrlarini o'rganib chiqib, fuqarolik protsessual huquqiy munosabat subyektlarini: fuqarolik ishlari bo'yicha sud: birinchi instansiya sudi, sudya; apellyatsiya, kassatsiya instansiyasi sudi, sudlov hay'ati sudyalari; ishda ishtirok etuvchi shaxslar: ishdan bevosita moddiy va protsessual manfaatdor bo'lgan shaxslar, odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar kabi turlarga ajratadi.

Tadqiqotchi fuqarolik protsessual huquqiy munosabat subyekti sifatida sud (sudya)ning protsessual huquqiy holati qanday, ular ishda ishtirok etuvchi shaxsmi yoki fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilari tarkibiga kiruvchi subyektmidegan masala bo'yicha M.Mamasiddiqov, N.D.Eriashvili, V.V.Yarkov, O.N.Shemenevalarni ilmiy-nazariy qarashlarni tahlil qilib, sud protsessning boshqa subyektlaridan ishning natijalaridan moddiy-huquqiy manfaatdor emasligi, nizoli huquqiy munosabatlarda ishtirok etmasligi bilan alohida protsessual maqomga ega degan hulosaga keladi. Muallif huquqshunos olimlarning sudning fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarining asosiy va muhim subyekti, buning asosida ushbu huquqiy munosabatlarning vujudga kelishining ajralmas sharti uning huquq subyektligi degan pozitsiyalarini qo'llab-quvvatlaydi. Fuqarolik ishini ko'rib chiqish vaqtida yuzaga keladigan barcha moddiy va protsessual masalalar bo'yicha yakuniy qarorni faqat sud chiqarishga haqli, faqat u protsessning borishi va davomiyligiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun sudni fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilari tarkibiga kiruvchi alohida subyektmidegan xulosaga keladi.

Ushbu bobda muallif, fuqarolik protsessi subyektlari ichida sud majlisi kotibi maqomining noaniqligi, qolaversa, mamlakatimiz FPKning 55-moddasida sud majlisi kotibining huquqiy maqomi aniq berilmaganligi uning fuqarolik sud ishlarini

yuritishdagi maqomi bilan bevosita bog'liq bo'lgan ko'plab savollar va munozaralarni keltirib chiqarayotganligini ta'kidlab o'tadi. Fuqarolik protsessual huquqi fani nazariyasida sud majlisi kotibini fuqarolik protsessual huquqi subyektlarining u yoki bu turiga kiritishda turlicha qarashlar mavjud. Muallif, huquqshunos olimlar (S.F.Afanasyev, O.N.Gorodnova, A.A.Makarushkova, S.N.Fedulova)ning sud majlisi kotibini protsessual huquqiy maqomi bo'yicha qarashlarini tahlil qilib, sud majlisi kotibi fuqarolik sud ishlarini yuritishdagi asosiy vazifasi sudga yordam berish, texnik tUSDagi ishlarni amalga oshiruvchi alohida mustaqil shaxs deb hisoblaydi. Tadqiqotchi sud majlisi kotibining maqomini aniqlashtirish maqsadida FPKning 6-bobida alohida moddada uning protsessual maqomini va faoliyatining asosiy yo'nalishlarini aniqlashtirish bo'yicha takliflarni ilgari surgan.

Muallif, mamlakatimiz FPKda "fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilari", "sud protsessi ishtirokchilari", "ishda ishtirok etuvchi shaxslar" kabi tushunchalar ishlatilgan bo'lsa-da, ularning mazmun-mohiyati to'liq ochib berilmaganligini ta'kidlab, fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilari sud protsessi ishtirokchilari tushunchasiga nisbatan kengroq tushuncha degan xulosaga keladi. Qonun chiqaruvchi bu masalada qonunchilik texnikasiga asosiy e'tiborni qaratishi, protsessual terminlar tushunchasi aniq, tizimli ravishda berilishi kerakligini, bu esa o'z navbatida qonun normalarini tushunish va qo'llashda turli xil chalkashliklarni oldini oladi deb hisoblaydi. Tadqiqotchi fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilarini tarkibini aniqlash va ularni fuqarolik protsessual qonunchilikda aniq belgilab qo'yish maqsadida O'zbekiston Respublikasi FPKga fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilari tarkibi deb nomlangan yangi 38<sup>1</sup>-modda kiritishni ushbu moddada sud, ishda ishtirok etuvchi shaxslar va odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar o'z aksini topishini taklif etadi.

Muallif huquqshunos olimlar Sh.Sh.Shoraxmetov, N.M.Kostrova, M.S.Shakaryan, M.A.Vikut, N.A.Artebyakina, L.V.Tumanovalarni ishda ishtirok etuvchi shaxslar tarkibi bo'yicha bildirgan fikrlarni o'rganib chiqib, ishda ishtirok etuvchi shaxslar doirasi, tarkibi, chegarasini aniq belgilanmasligi sud amaliyotida turli xil qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi deb hisoblaydi. Chunki sud jarayonida muayyan ishda ishtirok etuvchi shaxslarning u yoki bu guruhga kiritish uchun aniq mezonlar ishlab chiqilishi lozim. Tadqiqotchi ishda ishtirok etuvchi shaxslarni doirasini, aniq chegarasini belgilash bo'yicha mezon sifatida ish yakunidan manfaatdorlik darajasiga qarab ajratib olish muhim deb hisoblaydi. Ta'kidlash joizki, hozirda korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan yuzaga kelmaydigan qarorlari hamda ular mansabdor shaxslarining shunday harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ishlar bo'yicha ish yuritishda ishtirok etuvchi shaxslar sifatida kimlar e'tirof etilishi munozaraligicha qolmoqda.

Dissertant ishda taraflar tushunchasi bo'yicha huquqshunos olimlar M.M.Mamasiddiqov, Z.N.Esanova, Y.A.Popovalarning fikrlarini tahlil qilib, taraflar deganda faqat da'vo tartibida ko'riladigan ishlarda ishtirok etadigan taraflarni tushunmaslik kerakligini, fuqarolik sud ishlarini yuritishning boshqa turlarida ham taraflar ishtirok etishini ta'kidlab, fuqarolik protsessual

qonunchilikda taraflar tushunchasi va turlari aniq ko'rsatib o'tilishini aytib o'tadi. Muallif taraflarning protsessual huquq va majburiyatlarini tahlil qilib, FPKning 44-moddasiga beshinchi qism sifatida taraflarning majburiyatlariga: o'z vaqtida sudga kelish; sud majlisida protsessual tartib qoidaga rioya qilish; sud xarajatlarini to'lash; isbotlash va dalillar taqdim etish; FPKga muvofiq o'z zimmasiga yuklatilgan boshqa protsessual majburiyatlarni bajarishi shartligini kiritish to'g'risida taklif ishlab chiqadi.

Tadqiqotchi uchinchi shaxslar tushunchasini ilmiy-nazariy tahlil qilib, ushbu shaxsga ta'rif ishlab chiqadi. Uchinchi shaxslarni turlarga ajratish bo'yicha mezonlarni o'rganib chiqib, uchinchi shaxslarni turlarga ajratishda asosiy mezon sifatida ish yakunidan moddiy va protsessual manfaatdorlik darajasi asosiy mezon bo'lish kerak degan xulosaga keladi.

Dissertant, ushbu bobda prokurorning protsessual huquqiy maqomini ilmiy-nazariy tahlil qilib, fuqarolik protsessida prokuror fuqaroning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun ariza bilan sudga murojaat etishda o'z zimmasiga yuklatilgan asosiy vazifani amalga oshiradi va fuqarolik ishini qo'zg'atgan shaxs bo'lib hisoblanadi hamda u ishda ishtirok etuvchi shaxs sifatida o'zining mustaqil protsessual huquqiy holatini saqlab qoladi hamda prokuror hech qachon fuqarolik protsessida taraf hisoblanmaydi degan xulosaga keladi. Bundan tashqari fuqarolik sud ishlarini yuritishda prokurorlarni ham ixtisoslashtirish, ixtisoslashgan prokurorlarning huquqiy maqomi, protsessda tutgan o'rini aniqlash, FPKda bu bilan bog'liq normalarni kiritish vaqti kelganligini qayd etadi.

Muallif suddagi vakillik tushunchasi bo'yicha M.M.Mamasiddqiov, K.K.Olimova, R.A.Sidorov N.V.Perepelkina, A.S.Kuskov, O.A.Ruzakova Y.Nekrasova, E.S.Aloyanlarning qarashlarini ilmiy-nazariy tahlil qilib, sudda vakillik qilish tushunchasiga ilmiy ta'rif ishlab chiqadi. Muallif, fuqarolik protsessual huquqi fani nazariyasida vakil bilan advokat maqomining o'zaro nisbati, advokatning sud protsessida ishtirokining o'ziga xos xususiyatlariga alohida e'tibor qaratib, bu boradagi E.S.Aloyan, R.A.Sidorov, S.S.Kazixanova, E.Y.Kolokolova, E.M.Xaleppolarning fikr-mulohazalarini o'rganib chiqib, advokat vakillikni boshqa turidan huquqiy maqomi, advokat yuridik yordam ko'rsatish bo'yicha yozma ravishda shartnoma tuzishi, sudda ish yuritish bo'yicha vakil sifatida professional faoliyat bilan faqat advokatlar shug'ullanishi mumkinligi, ularni boshqa vakillik turidan professionalligi, advokat ishga kirishishi uchun advokatlik guvohnomasi va advokatlar tuzilmasi tomonidan berilgan order taqdim etishi, vakil va advokatning javobgarlik masalasi, ya'ni ishonch bildiruvchi shaxs oldidagi fuqarolik (mulkiy) javobgarlik va protsessual javobgarligi, advokatning advokatlik tuzilmasi oldidagi intizomiy javobgarligi kabi masalalar bilan ham o'zaro nisbati turlicha ekanligini asoslantirib beradi.

Mazkur bobda dissertant odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar va ularning protsessual vazifalari bilan bog'liq ayrim masalalarni tahlil qilgan. Xususan, tadqiqotchi fuqarolik protsessual qonunchiligida guvoh sifatida so'roq qilinishi mumkin bo'lmagan shaxslar doirasi tor ekanligini, guvohning guvohlik ko'rsatuvi berishdan bosh tortish yoki rad etish huquqi

ko'rsatilmaganligini ko'rsatib, bu borada Sh.Shoraxmetov, Z.Esanova, M.Fokina, N.Gramov, V.Konev, Y.V.Xromix, J.Axmedovlarni qarashlari va Germaniya, Rossiya, Qozog'iston, Belarus, Latviya, Ozarbayjon Respublikalari fuqarolik protsessual qonunchiligini qiyosiy tahlil etib, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyasi 28-moddasida belgilangan "Hech kim o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emas" degan normani qo'shimcha ravishda qonun hujjatlarida kafolatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 56-moddasiga o'zgartish va qo'shimcha kiritib, unda guvoh sifatida chaqirilishi va so'roq qilinishi mumkin bo'lmagan shaxslar hamda guvohlik ko'rsatmalarini berishdan bosh tortish huquqiga ega bo'lgan shaxslar ro'yxati o'z ifodasini topishi to'g'risida taklif ishlab chiqadi.

Dissertatsiyaning **"Fuqarolik sud ishlarini yuritishning ayrim protsessual institutlarini takomillashtirish istiqbollari"** deb nomlangan to'rtinchi bobida da'vo tartibida, alohida tartibda, buyruq tartibida ish yuritishdagi protsessual muammolar, fuqarolik sud ishlarini yuritishni raqamlashtirish istiqbollari yoritilgan.

Muallif ushbu bobda fuqarolik protsessual huquqi fani nazariyasi boyitish maqsadida yangi "jamoaviy da'vo" tushunchasini kiritishni ilgari suradi. Tadqiqotchi bu borada V.V.Yarkov, G.O.Abolonin, D.A.Fursov, N.M.Korshunov, M.Mamasiddiqov kabi huquqshunos olimlarning ilmiy qarashlarini tahlil qilib, "jamoaviy da'vo" tushunchasiga ilmiy ta'rif ishlab chiqadi. Yangi qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining "Mehnat nizolarini ko'rib chiqish" nomli 34-bobining "6-§.Jamoaviy mehnat nizolarini hal etish (tartibga solish)", O'zbekiston Respublikasi "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 24-moddasiga muvofiq mahalliy hokimiyat organlari, 25-moddasiga ko'ra Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi huzuridagi Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish agentligi va uning hududiy organlari iste'molchilarning (iste'molchilar nomuayyan doirasining) huquqlarini himoya qilib, sudga murojaat etish huquqiga ega ekanligi mustahkamlab qo'yilgan. Biroq ushbu turdagi ishlarni sudga ko'rishning protsessual mexanizmlari mavjud emasligini ta'kidlab, xorijiy davlatlar (Buyuk Britaniya, Germaniya, Ispaniya, Shvetsiya, Belgiya, Braziliyada, Rossiya) tajribasidan kelib chiqib, FPKga "Bir guruh shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha ishlarni ko'rib chiqish" (**Class action**) nomli yangi bob kiritish va ushbu bobda bir guruh shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilish huquqi, ariza va unga qo'yilgan talablar, ishlarni sudga ko'rishga tayyorlash, ko'rib chiqish tartibi, ish bo'yicha sud xarajatlarini qoplash tartibi, sudning hal qiluv qarori kabi normalar o'z aksini topishi kerakligi to'g'risida taklifini asoslantiradi. Muallif fikricha, fuqarolik protsessual qonunchilikka ushbu protsessual institutni kiritilishi sudlarda ko'plab bir xil da'volarni ko'rib chiqish zaruratidan ozod qilinadi, bu esa ishlarni sifatli va tezkor ko'rib chiqishga yordam beradi. Shuningdek, taklif etilayotgan yangi protsessual huquqiy institut bir guruh shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishning protsessual tartibini birlashtirishga imkon beradi, bu esa o'z navbatida bir xil sud amaliyotini shakllantirishga olib keladi.

Muallif sudda merosga oid ishlarni ko'rishda kelishuv bitimi tuzish, mediatsiyaning muhim o'rin tutishini, bu esa sudyalarning ish hajmini kamaytirishga, fuqarolik-huquqiy nizolarni sudga qadar hal etishning muqobil usullarini rivojlantirishga huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi, degan xulosani ilgari suradi. Shuningdek, dissertant meros ochilgan paytda meros qoldiruvchining hali tug'ilmagan merosxo'ri bo'lsa va merosxo'rlar merosni taqsimlashni so'rab, sudga murojaat qilishsa, ushbu holatda sud fuqarolik ishini to'htatib turish majburiyati bo'yicha protsessual harakatni amalga oshirish lozimligi to'g'risida FPKning 116-moddasiga taklif ishlab chiqadi. Muallif kelajakda sudlarni ixtisoslashtirish yo'nalishini rivojlantirgan holda meros huquqi bilan bog'liq ishlarni ko'rishga ixtisoslashgan sudlarni tashkil etishni va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 20-iyuldagi "Sudlar tomonidan meros huquqiga oid qonunchilikning qo'llanilishi to'g'risida"gi 5-son qarorini yangi tahrirda ishlab chiqish vaqti yetib kelganligini ta'kidlab o'tadi.

Meros, uy-joy va yerga oid ishlar sud amaliyotida ko'pligi va uning murakkabligi nuqtai-nazardan ushbu ishlarni sudda ko'rish ma'lum bir hayotiy tajriba, malaka talab etishini hisobga olgan holda sudyalarni ixtisoslashtirish, umumiy sud ishlarining 60-65 foizini fuqarolik ishlari tashkil etishini, aholining ko'p sonli murojaatlarini e'tiborga olgan holda hamda aholiga qulaylik yaratish maqsadida fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar faoliyatini har bir tumanda tashkil etish to'g'risida asoslantirilgan takliflarni ilgari suradi. Dissertant ushbu bobda sirdan chiqarilgan hal qiluv qarorlarini qayta ko'rish to'g'risida ariza berish muddatlari bo'yicha Germaniya, Rossiya, Qozog'iston, Ozarbayjon fuqarolik protsessual qonunchiligi hamda huquqshunos olim va amaliyotchi M.Tojiboyevning fikrlarini tahlil qilib, FPKning 285-moddasiga javobgar hal qiluv qarorini sirdan chiqargan sudga ushbu hal qiluv qarorining nusxasi unga topshirilgan kundan e'tiboran o'n kun ichida uni qayta ko'rish haqida ariza berishga haqli ekanligi to'g'risida o'zgartirish va qo'shimcha kiritishni taklif qiladi.

Muallif alohida tartibda ko'riladigan ishlar tushunchasi, ahamiyati va uning turlari to'g'risida Sh.Sh.Shoraxmetov, E.Egamberdiyev, V.V.Yarkov va V.P. Volojanin, Y.A.Borisova, V.V.Argunovlarni fikrlarini o'rganib chiqib, alohida tartibda ko'riladigan ishlarda huquq to'g'risida nizing yo'qligi va buning natijasida taraflarning mavjud bo'lmasligi bu turkumdagi sud ishlarini yuritishni mustaqil turi ekanligini e'tirof etadi. Tadqiqotchi, alohida tartibda ko'riladigan ishlarning turlari bo'yicha Rossiya, Xitoy, Belarus, Ozarbayjon, Armaniston, Latviya va Qirg'iziston davlatlarining fuqarolik protsessual qonunchiligini qiyosiy tahlil etib, ular da alohida tartibda ko'riladigan ishlarning turlari qamrovi milliy fuqarolik protsessual qonunchiligimizga qaraganda qengroq ekanligini qayd etadi va O'zbekiston Respublikasi FPKning 293-moddasiga alohida tartibda ko'riladigan ishlar ro'yxatini kengaytirish bo'yicha taklif ishlab chiqadi. Shuningdek, fuqarolik protsessual qonunchilikda alohida tartibda ko'riladigan ishlardan biri sifatida fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish yoki o'lgan deb e'lon qilish to'g'risidagi ishlarni sud muhokamasiga tayyorlash bo'yicha sudya tomonidan amalga oshiriladigan protsessual harakatlarni yetarli emasligini, bu borada xorijiy davlatlar Italiya, Ispaniya, Xitoy, Estoniya, Belarus fuqarolik protsessual qonunchiligi tahlil

etilib, ushbu toifadagi ishni sudda ko‘rishga tayyorlashda sudya tomonidan arizachini hisobidan mahalliy va respublika gazetasida e‘lon berish to‘g‘risida ajrim chiqarilishi haqida FPKning 306-moddasiga yangi norma kiritishni taklif qiladi.

Dissertant g‘ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya statsionariga yotqizish bo‘yicha sud ishlarini yuritishga ikki xil yondashuv mavjudligini ko‘rsatib, birinchi yondashuv tarafdorlari mazkur ishlarni ommaviy huquqiy munosabatdan kelib chiqadigan nizo sifatida, ya‘ni da‘vo tartibida ko‘rish kerakligini takidlasa, ikkinchi yondashuv tarafdorlar esa ushbu ishlarni alohida tartibda ko‘rish kerakligini e‘tirof etishini ko‘rsatib, ikkinchi yondashuv tarafdorlarining fikrini qo‘llab quvvatlaydi. Tadqiqotchi o‘z fikrini, Belarus, Latviya, Armaniston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon kabi davlatlarning fuqarolik protsessual qonunchiligida ushbu ish alohida tartibda ko‘riladigan ishlarning turiga kiritilganligi bilan asoslantiradi. Muallif, ushbu turdagi ishlarni sudda ko‘rish muddatiga e‘tibor qaratib, mazkur turdagi ishlarni sudda ko‘rish muddatlarini qisqartirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Dissertant ushbu bobda sud buyrug‘i va buyruq tartibida ish yuritishning mohiyati, sud buyrug‘i sud qarorlarining turi sifatida e‘tirof etilishi to‘g‘risidagi masala fuqarolik protsessual huquq nazariyasida hozirgacha bahsli bo‘lib kelayotganligini qayd etadi. Huquqshunos olimlar Sh.Sh.Shoraxmetov, M.Mamasiddiqov, V.I.Reshetnyak, V.N.Polyakov, N.A.Chechina, M.A.Cherebin, V.V.Yarkovlar, N.A.Gromoshina, I.I. Черных fikrlarini tahlil qilib, buyruq tartibida ish yuritish fuqarolik sud ish yuritishining alohida turi ekanligini, FPKning “Sud hujjatlari” deb nomlanadigan 6-moddasida sud buyrug‘i sud hujjati sifatida ko‘rsatilganligini ta‘kidlaydi. Hozirgi kunda sud buyrug‘ini bekor qilishda ham ayrim muammolar mavjud. Masalan vafot etgan yoki O‘zbekiston yurisdiksiyasidan tashqarida yurgan fuqaroga sud buyrug‘i chiqarilsa va u ijro etish uchun majburiy ijro byurosi organlari yuborilganda ular tomonidan sudga ijro etib bo‘lmasligi sababli qaytarilmoqda. Ushbu holatda sud mazkur sud buyrug‘ini bekor qilishning protsessual mexanizmi yo‘qligi sababli bekor qila olmaydi. Mana shunday holatda tadqiqotchi FPKning 181-moddasiga undiruvchi yoki sud tashabbusi bilan sud buyrug‘ini bekor qilish to‘g‘risida qoida kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Shuningdek, dissertant, sud buyrug‘ini chiqarish bo‘yicha talablar doirasini kengaytirish bo‘yicha xorijiy davlatlar tajribasi asosida asoslantirilgan takliflarni ishlab chiqadi.

Dissertant ushbu bobda fuqarolik sud ishlarini yuritishni raqamlashtirish istiqbollari bo‘yicha M.M.Mamasiddiqov, O.Sh.Pirmatov, M.K.Suleymanov, M.D.Juravleva, A.V.Starkov, Y.Y.Karginalarning ilmiy-nazariy fikr-mulohazalarini tahlil qilib, fuqarolik sud ishlarini yuritishni raqamlashtirish, sun‘iy intellektni fuqarolik sud ishlarini yuritish jarayoniga tatbiq etishni qo‘llab-quvvatlaydi. Shuningdek, Germaniya, AQSH, Xitoy, Singapur, Avstraliya, Estoniya kabi xorijiy davlatlarning tajribasini tahlil qilib, sun‘iy intellektni fuqarolik sud ishlarini yuritish jarayoniga tatbiq etishni ijobiy jihati sud jarayoni samaradorligini oshirishga, ortiqcha qog‘ozbozlikka chek qo‘yishi orqali hal etilsa, salbiy jihatlari taraflarning tortishuvi, dalillarga baho berish, robot sudya chiqargan sud hujjatlarini bekor qilinishi natijasida unga nisbatan intizomiy choralar qo‘llanilishida muammolar

kelib chiqishi mumkin degan xulosaga keladi. Qolaversa, robot sudyani fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchisi hisoblanadimi yoki yo'qmi, bu masalada mas'uliyat, javobgarlik kimning zimmasiga yuklanishida ham muammo kelib chiqadi. Shuningdek, inson taqdirini robot sudya hal qilishi, unda xissiyotning mavjud emasligi, ular faqat dastur bo'yicha ishlashi ham keyinchalik fuqarolar o'rtasida norozilikni keltirib chiqaradi. Tadqiqotchi sun'iy intellektni nizosiz, buyruq tartibida ko'riladigan va soddalashtirilgan tartibda ko'riladigan ishlar toifasiga qo'llash maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Muallif bundan tashqari muomala layoqatini cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz shaxslar, voyaga yetmagan shaxsni to'liq muomalaga layoqatli deb e'lon (emansipatsiya) shaxslar tomonidan bitimlar tuzilishi yoki biror bir harakatni amalga oshirilishi natijasida ko'plab fuqarolik nizolarni kelib chiqishini oldini olish maqsadida ushbu toifadagi ishlar bo'yicha ochiq elektron ma'lumotlar bazasini tashkil etishni taklif etadi. Kelgusida fuqarolik sud ishlarini yuritishni raqamlashtirish istiqbollari sifatida fuqarolarimizga sud orqali himoyalanişda qulayliklar yaratish, bir qator interaktiv xizmatlar ko'rsatilishini ta'minlash maqsadida har bir fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar binosida maxsus terminal o'rnatilishi kerak deb hisoblaydi.

## **XULOSA**

Fuqarolik sud ishlarini yuritishning protsessual muammolari mavzusini ilmiy-nazariy tahlil etgan holda quyidagi ilmiy-nazariy xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

### **I. Ilmiy-nazariy xulosalar**

1. Tadqiqotchi tomonidan Due process (tegishli jarayon), Procedural fairness (protsessual adolat) va Procedural-justice (protsessual odil sudlov) huquqiy doktrinalari tahlil etilib, sud fuqarolik ishini ko'rayotganida Procedural fairness (protsessual adolat) doktrinasi qoidalarini qo'llash maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Protessual adolat protsessual qonuniylikdan ustun bo'lishi, sudya o'zining ichki ishonchiga tayanib qaror qabul qilishi, qarorlar xolis va adolatli bo'lishi kerak. Procedural fairness (protsessual adolat) huquqiy doktrinasidan kelib chiqib, fuqarolik protsessining umumiy vazifasi sifatida fuqarolik ishlarini adolatli ko'rib chiqish va hal qilishni ham fuqarolik protsessual qonunchilikda mustahkamlab qo'yish kerak degan xulosaga keladi.

2. Muallif tomonidan fuqarolik protsessual huquqining prinsiplari tushunchasiga quyidagicha ilmiy ta'rif ishlab chiqildi: "Fuqarolik protsessual huquqining prinsiplari bu – O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Sudlar to'g'risida"gi Qonun, Fuqarolik protsessual kodeksi va boshqa qonun hujjatlarida mustahkamlangan, protsessual institutlarning barcha tizimlari uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan, fuqarolik ishlarini to'g'ri, o'z vaqtida, adolatli ko'rib chiqish va hal etishda odil sudlovni ta'minlaydigan asosiy rahbariy qoidalardir".

3. Muallif ochiq odil sudlov (Open justice) va ochiq sud tamoyili (open court principle), oshkoralik, ochiqlik, shaffoflik, ommaviylik tushunchalari umumiy mazmun-mohiyati jihatidan bir biriga yaqin bo'lsa-da, ular o'rtasida nisbatan

sezilarli ravishda xilma-xillik, farq mavjud degan xulosaga keladi. Sudda ish ko'rishning oshkoraligi deganda sud jarayoni, ishni ko'rib chiqish tartibini tushunishimiz kerak. Sudda ish ko'rishning oshkoraligi insonlarning sud hokimiyatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi, oshkora ko'rilgan ishlarning ommaviy axborot vositalari orqali yoritilishi jamiyat tomonidan sud faoliyatini xalq nazoratiga olinishini ta'minlaydi va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Shuningdek, mazkur prinsip sud hujjatlarining qonuniy, asosli va adolatli qabul qilinishini kafolatlaydi.

Sud ishlarini ochiqligi deganda birinchi navbatda sudlar faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlaydigan, davlat hokimiyatining bir tizimi sifatida sud faoliyatining ochiqligi, sud hujjatlarini Internet saytlarida ochiq shaxssizlantirilgan holda e'lon qilinishi, har bir insonning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida (33-moddasi) belgilangan shaxsiy huquq va erkinliklari sifatida sudlar faoliyati to'g'risida axborot olish huquqini ta'minlanishi tushunilishi kerak.

4. Fuqarolik protsessual huquqi fani nazariyasini boyitish maqsadida tadqiqotchi tomonidan erkin huquq (dispozitivlik) prinsipi tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi: erkin huquq (dispozitivlik) prinsipi – bu o'zining yoki boshqa shaxlarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari yohud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida fuqarolik protsessini vujudga keltirish, harakatlantirish va tugatish bilan bog'liq bo'lgan protsessual huquqlardan foydalanish erkinligidir.

5. Muallif taraflarning protsessual teng huquqliligi prinsipi tushunchasiga quyidagicha ilmiy ta'rif ishlab chiqadi: Taraflarning protsessual teng huquqliligi prinsipi - bu taraflarning qonunda mustahkamlangan o'z huquq va erkinliklarini sudda himoya qilishning protsessual vositalardan foydalanishda sud tomonidan protsessual huquq, imkoniyat, imtiyozlarning ta'minlanishi, protsessual majburiyatlarga rioya qilinishi, shuningdek boshqa tarafning fikr va mulohazalariga e'tiroz bildirish huquqi tushuniladi.

6. Muallif fuqarolik protsessida tortishuvchilik prinsipi tushunchasiga quyidagicha ta'rif ishlab chiqadi: Tortishuvchilik prinsipi bu - ishda ishtirok etuvchi shaxslarning ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni isbotlash yo'li bilan o'z talab va e'tirozlarini sud oldida bildirish, barcha protsessual harakatlarda ishtirok etish va hal qilinishi lozim bo'lgan barcha masalalar yuzasidan o'z fikrlarini bayon qilish, shuningdek, sudga ish holatlarini aniqlash hamda tegishli dalillarni to'plashda faol yordam ko'rsatishdagi huquq va majburiyatlari yig'indisidir.

7. Fuqarolik protsessual huquqi fani nazariyasini boyitish maqsadida tadqiqotchi tomonidan **huquqiy aniqlik** prinsipi tushunchasi ishlab chiqildi va unga quyidagicha mualliflik ta'rifi berildi: huquqiy aniqlik prinsipi bu – sudlar tomonidan sud hal qiluv qarorini protsessual huquq va moddiy huquq normalarini aniq, to'g'ri, adolatli qo'llagan holda nizoning kelib chiqish sabablariga huquqiy baho berish va ularni oldini olish yoki bartaraf etish bo'yicha huquqiy choralar qo'llash yuzasidan chiqarishi tushuniladi.

8. Muallif protsessual huquqlarni suiiste'mol qilish tushunchasiga quyidagicha ilmiy ta'rif ishlab chiqadi: Protsessual huquqlarni suiiste'mol qilish - bu qonunda nazarda tutilgan protsessual huquqlardan insofsiz foydalanish bo'lib, uning maqsadi sud protsessning normal borishiga to'sqinlik qilish, sud jarayonlarini sekinlashtirish,

muddatlarni cho‘zish, sud protsessi ishtirokchilari vaqtini olish, ularga ham moddiy ham protsessual zarar yetkazishdir.

**9.** Tadqiqotchi tomonidan fuqarolik protsessual huquqiy munosabat subyektlari ilmiy-nazariy tahlil etilib, ularni quyidagi turlarga ajratish maqsadga muvofiq degan xulosaga keladi:

a) Fuqarolik ishlari bo‘yicha sud: birinchi instansiya sudi, sudya; apellyatsiya, kassatsiya instansiyasi sudi, sudlov hay‘ati sudyalari;

b) ishda ishtirok etuvchi shaxslar: ishdan bevosita moddiy va protsessual manfaatdor bo‘lgan shaxslar, ya‘ni taraflar, uchinchi shaxslar ularning vakillari, alohida tartibda ko‘riladigan ishlarda ariza beruvchilar va boshqa manfaatdor shaxslar, buyruq tartibida ish yuritishda undiruvchi va qarzdor, hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan bog‘liq ishlar va chet davlat sudlarining hamda chet davlat hakamlik sudlarining (arbitrajlarining) hal qiluv qarorlarini tan olish va ijroga qaratish bilan bog‘liq ishlarda ishtirok etadigan taraflar; ishdan faqat protsessual manfaatdor bo‘lgan shaxslar: prokuror, ishda boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etadigan davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolar.

c) odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar (guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar, yozma va ashyoviy dalillarni saqlovchilar, ijro ishi yuritishdagi xolislar va saqlovchilar).

**10.** Tadqiqotchi fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilari to‘g‘risida ilmiy-nazariy qarashlarni tahlil etib, fuqarolik sud ishlarini yuritishda sudning protsessual maqomining huquqiy tabiati birinchi navbatda uning fuqarolik protsessida huquq subyektligi ekanligi bilan bog‘liqligi, sud protsessning boshqa subyektlaridan ishning natijalaridan moddiy-huquqiy manfaatdor emasligi, nizoli huquqiy munosabatlarda ishtirok etmasligi bilan alohida protsessual maqomga ega degan xulosaga keladi.

**11.** Muallif fuqarolik protsessi subyektlari ichida sud majlisi kotibining protsessual huquqiy maqomi, o‘rni tahlil etilib, fuqarolik sud ishlarini yuritishdagi asosiy vazifasi sudga yordam berish, texnik tuzdagi ishlarni amalga oshiruvchi alohida mustaqil shaxs deb hisoblaydi.

**12.** Muallif O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual qonunchiligida “fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilari”, “sud protsessi ishtirokchilari”, “ishda ishtirok etuvchi shaxslar” kabi tushunchalar ishlatilgan bo‘lsa-da, ularning mazmun-mohiyati to‘liq ochib berilmaganligini e‘tirof etadi. Tadqiqotchi fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilari sud protsessi ishtirokchilari tushunchasiga nisbatan kengroq tushuncha ekanligini, chunki, sud protsessi ishtirokchilarida ko‘proq muayyan sud jarayonida ishtirok etadigan shaxslar doirasi tushunilishi haqida to‘htamga keladi hamda qonun chiqaruvchi bu masalada qonunchilik texnikasiga asosiy e‘tiborni qaratishi, protsessual terminlar tushunchasi aniq, tizimli ravishda berilishi kerakligi, bu esa o‘z navbatida qonun normalarini tushunish va qo‘llashda turli xil chalkashliklarni oldini oladi degan xulosaga keladi.

**13.** Tadqiqotchi taraflar tushunchasiga turli xil yondashuvlarni tahlil qilib o‘rgangan holda taraflar deganda faqat da‘vo tartibida ko‘riladigan ishlarda ishtirok etadigan taraflar (da‘vogar va javobgar)ni tushunmaslik kerakligini, fuqarolik sud

ishlarini yuritishning boshqa turlarida ham taraflar ishtirok etishini, masalan, buyruq tartibidagi ishlarda taraflar undiruvchi va qarzdor ishtirok etishini e'tirof etadi. Shundan kelib chiqib, muallif fuqarolik sud ishlari yuritish turlaridan kelib chiqib, fuqarolik protsessual qonunchilikda taraflar tushunchasi va turlari aniq ko'rsatib o'tilishi to'g'risida xulosani ilgari suradi.

**14.** Fuqarolik protsessida uchinchi shaxslar tushunchasi tahlil etilib, mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi. Uchinchi shaxslar bu – boshlangan protsessga kirib keladigan yoki jalb etiladigan, ishdan moddiy va protsessual manfaatdor bo'lgan, ish yuzasidan chiqarilgan sud hal qiluv qarori ma'lum darajada ularning fuqarolik moddiy huquqlariga ta'sir etib, ishning sudda hal etilishi natijasida ularga nisbatan muayyan huquq va majburiyatlar vujudga keladigan shaxslardir.

**15.** Fuqarolik protsessida prokurorning protsessual huquqiy maqomi o'rganib chiqilib, prokuror ishda ishtirok etuvchi shaxs sifatida o'zining mustaqil protsessual huquqiy holatini saqlab qoladi hamda prokuror hech qachon fuqarolik protsessida taraf hisoblanmasligi to'g'risida xulosaga kelindi.

**16.** Fuqarolik protsessual huquqi fani nazariyasini boyitish maqsadida tadqiqotchi tomonidan **jamoaviy da'vo** tushunchasi ishlab chiqildi va unga quyidagicha mualliflik ta'rifi berildi: Jamoaviy da'vo - bir xil nizo predmeti va asosiga ega bo'lgan bo'lgan bir guruh shaxslar tomonidan taqdim etilgan protsessual hujjat bo'lib, uning asosiy xususiyati bir xil protsessual pozitsiyaga ega bo'lgan shaxslarning butun guruhini himoya qilishga qaratilgan talabdir.

**17.** Sudda vakillik qilish tushunchasiga mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi: Sudda vakillik qilish – bu ishda ishtirok etuvchi shaxs sifatida ishonch bildiruvchining buzilgan huquq va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sudda himoya qilish, malakali yuridik yordam ko'rsatish, sudlar tomonidan odil sudlovning amalga oshirilishiga ko'maklashishdan iboratdir.

**18.** Muallif vakil bilan advokat maqomining o'zaro nisbati, advokatning sud protsessida ishtirokining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilib, advokat vakillikni boshqa turidan o'zaro huquqiy maqomi, advokat yuridik yordam ko'rsatish bo'yicha yozma ravishda shartnoma tuzishi, sudda ish yuritish bo'yicha vakil sifatida professional faoliyat bilan faqat advokatlar shug'ullanishi mumkinligi, ularni boshqa vakillik turidan professionalligi, advokat ishga kirishishi uchun advokatlik guvohnomasi va advokatlar tuzilmasi tomonidan berilgan order taqdim etishi, vakil va advokatning javobgarlik masalasi, ya'ni ishonch bildiruvchi shaxs oldidagi fuqarolik (mulkiy) javobgarlik va protsessual javobgarligi, advokatning advokatlik tuzilmasi oldidagi intizomiy javobgarligi kabi masalalar bilan ham o'zaro nisbati turli ekanligini asoslantirib beradi.

## **II. Amaldagi qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar:**

**1.** O'zbekiston Respublikasi FPKning "Fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilari" deb nomlangan 6-bobiga alohida yangi quyidagi mazmundagi huquqiy normani kiritish taklif etiladi:

### **38<sup>1</sup>-modda. Fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilarining tarkibi**

Sud, ishda ishtirok etuvchi shaxslar va odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilaridir.

2. O‘zbekiston Respublikasi FPKning 2-moddasini birinchi qismini quyidagi tahrirda bayon etilishi taklif etiladi:

Fuqarolik sud ishlarini yuritish vazifalari quyidagilardan iborat:

fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, O‘zbekiston Respublikasining huquqlari va manfaatlarini, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining huquqlari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish, **sud qarorlari va boshqa hujjatlarning ijro etilishini ta‘minlash** maqsadida fuqarolik ishlarini to‘g‘ri, o‘z vaqtida va **adolatli** ko‘rib chiqish va hal etish;

qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlashga, **huquqbuzarliklarni oldini olishga**, demokratiyani, ijtimoiy adolatni, fuqarolar o‘rtasida tinchlik va milliy totuvlikni ta‘minlashga ko‘maklashish;

qonunga va sudga nisbatan hurmat munosabatini shakllantirish.”

3. O‘zbekiston Respublikasi FPKning 1-moddasiga fuqarolik sud ishlarini yuritishning mustaqil turi sifatida “Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining ma‘muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan yuzaga kelmaydigan qarorlari hamda ular mansabdor shaxslarining shunday harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to‘g‘risidagi ishlarni yuritish”, “Soddalashtirilgan tartibda ish yuritish” kabi ishlarni ham kiritish taklif qilinadi.

4. O‘zbekiston Respublikasi FPKning 44-moddasiga beshinchi qism sifatida quyidagi mazmunda yangi qoidalar kiritish taklif etiladi:

Taraflarning majburiyatlari:

1) o‘z vaqtida sudga kelish;

2) sud majlisida protsessual tartib qoidaga rioya qilish;

3) sud xarajatlarini to‘lash;

4) isbotlash va dalillar taqdim etish;

5) ushbu kodeksga muvofiq o‘z zimmasiga yuklatilgan boshqa protsessual majburiyatlarni bajarishi shart.

5. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining “Fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilari” deb nomlangan 6-bobi 39-moddasida ham fuqarolik sud ishlarini yuritish turlarining barcha ishtirokchilarini qamrab olish maqsadida ushbu moddaga buyruq tartibidagi ishlar va korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining ma‘muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan yuzaga kelmaydigan qarorlari hamda ular mansabdor shaxslarining shunday harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to‘g‘risidagi ishlarda **ishtirok etuvchi shaxslar sifatida undiruvchi, qarzdor, fuqaro, mansabdor shaxslar va ishning yakunidan manfaatdor bo‘lgan shaxslarning ham** kiritish taklif etiladi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 136-moddasidagi qoidalarni O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksida aks ettirish maqsadida FPKning 9-moddasini “Sudyalarning mustaqilligi, ularning faqat Konstitutsiya va qonunga bo‘ysunishi” deb nomlash hamda mazkur moddaning birinchi qismi birinchi xatboshisini quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi: “Fuqarolik ishlari

bo'yicha odil sudlovni amalga oshirishda sudyalari mustaqildir, faqat Konstitutsiya va qonunlarga bo'ysunadilar".

Shuningdek, FPKning 9-moddasiga uchinchi qismi sifatida quyidagi "Sudyalarning mustaqilligi kafolatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonun hujjatlari bilan belgilanadi" degan qoida kiritish taklif etiladi.

**7.** O'zbekiston Respublikasi FPKning 20-moddasi uchinchi va to'rtinchi qismini quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi:

"Ishni apellyatsiya instansiyasi sudida ko'rishda ishtirok etgan sudya shu ishni birinchi instansiya, **apellyatsiya**, kassatsiya yoki taftish instansiyasi sudida ko'rishda ishtirok etishi mumkin emas.

Ishni kassatsiya instansiyasi sudida ko'rishda ishtirok etgan sudya shu ishni birinchi instansiya, apellyatsiya, **kassatsiya** yoki taftish instansiyasi sudida ko'rishda ishtirok etishi mumkin emas".

**8.** O'zbekiston Respublikasi FPKning 12-moddasi ya'ni sud muhokamasining oshkoraligi prinsipi bo'yicha berilgan qoidalar sud muhokamasi oshkoraligi va sudning ochiligini to'liq qamrab olmaydi. Shu munosabat bilan FPKning 12-moddasiga quyidagi sakkizinchi qism bilan to'ldirish taklif etiladi:

Fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilari va sud majlisi zalida hozir bo'lganlar yozma qaydlar qilish huquqiga ega. Sud majlisini fototasvirga tushirish, audio- va videoyozuvini amalga oshirish, shuningdek ommaviy axborot vositalarida translyatsiya qilinishiga taraflarning roziligi va sud majlisida raislik qiluvchining ruxsati bilan yo'l qo'yiladi.

**9.** O'zbekiston Respublikasi FPKning "Fuqarolik sud ishlarini yuritish prinsiplari" deb nomlangan 2-bobiga quyidagi mazmundagi yangi "Qonuniylik" prinsipini kiritish taklif etiladi:

#### **7<sup>1</sup>-modda. Qonuniylik prinsipi**

"Sudya, ishda ishtirok etuvchi shaxslar va odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar, shuningdek fuqarolik sud ishlarini yuritishda ishtirok etayotgan barcha shaxslar odil sudlovni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, ushbu Kodeks va O'zbekiston Respublikasi boshqa qonunlariga aniq rioya etishlari va ularning talablarini bajarishlari shart"

**10.** O'zbekiston Respublikasi FPKning "Fuqarolik sud ishlarini yuritish prinsiplari" deb nomlangan 2-bobiga quyidagi mazmundagi yangi "Erkin huquq (dispozitivlik)" prinsipini kiritish taklif etiladi:

#### **16<sup>1</sup>-modda. Erkin huquq (dispozitivlik) prinsipi**

Fuqarolik ishlari bo'yicha sudda ish taraflari, uchinchi shaxslar, ularning vakillari, ariza beruvchilar va sudda ko'rilayotgan alohida tartibda yuritiladigan ishlar bo'yicha boshqa manfaatdor shaxslar, buyruq tartibida ish yuritishda undiruvchi va qarzdor, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan yuzaga kelmaydigan qarorlari hamda ular mansabdor shaxslarining shunday harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ishlarda fuqaro, mansabdor shaxslar va ishning yakunidan manfaatdor bo'lgan shaxslar, prokuror, ishda boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya

qilishda ishtirok etadigan davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning arizasi asosida qo‘zg‘atiladi.

